

## O'QUVCHILAR NUTQIDAGI KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI.

*Olimova Dilafroz Botirovnaning Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar*

*13-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi*

*Boshlang`ich sinf o`qituvchisi Telefon: +998912192579*

**Annotatsiya:** Maqolada nutq tushunchasi, nutq o`stirish metodikasi, uning ahamiyati, o`quvchilar nutqini rivojlantirish yo`llari, metodikasi, nutqni egallashning qator aspektlari, nutq o`stirish yo`nalishlari, o`quvchilar nutqini o`stirishda aniq belgilangan talablar, ta`lim-tarbiya jarayonida nutq o`stirishga erishish orqali o`quvchilarda shakllantirilishi lozim bo`lgan hayotiy ko`nikmalar haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** nutq, metodika, nutq aspektlari, hayotiy ko`nikmalar, inson

**Kirish:** Nutq buzilishlarini tuzatishga qaratilgan birinchi urinishlar XVII-asrda korreksion pedagogika bo'yicha ishlarda tasvirlangan. (Eshitish qobiliyati saqlanib qolgan nutq nuqsonlari o'sha paytda alohida muammo sifatida ajralib turmagan). Defektologiya fanida L. S. Vigotskiyning har qanday nuqsonning tizimli tuzilishi haqidagi ta'limoti eng muhim hisoblangan. Nutqning buzilishi asosiy nuqson bo'lishi mumkin yoki u hissiy, vosita funksiyalarining rivojlanmaganligi va intellektual yetishmovchilik bilan qo'shilishi mumkin. Har holda, nutq buzilishlari maxsus tashkil etilgan professional tuzatishni talab qiladi.

### **Asosiy qism:**

O`qituvchi bolalarga zamonaviy bilim bersin,deb talab qilamiz . Ammo zamonaviy bilim berish uchun,avvalo, murabbiyning o`zi ana shunday bilimga ega bo`lishi kerak.

Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi fani quyidagi bo`limlarni o`z ichiga oladi:

- 1.Savod o`rgatish metodikasi;
- 2.O`qish metodikasi;
- 3.Grammatika, fonitika,so`z yasallishini o`rganish metodikasi;
- 4.Nutq o`stirish metodikasi.

Ona tili o`qitish metodikasining tamoiyllari

1.Til materialiga,nutq malakalarining to`g`ri rivojlanishiga e`tibor berish tamoyili.

2.Til ma`nolarini (Leksik,Grammatik,morfologik,sintaktik tahlillarini )tushunish tamoyili.

3.Tilga sezgirlikni o`stirish tamoyili

4.Nutqning ifodaligiga baho berish tamoyili;

### 5.Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili

“Til ta’limning bosh maqsadi,-deb qayd etiladi o’zbek maktablarida ona tili ta’limi Konsepsiyasida,ta’lim tarbiyaning barcha bosqichlari fikrni turli yo’sin-shaklda ifodalay olish malakalarini hosil qilishdan iboratdir”.Bu bosqich boshlang’ich maktablarga ham bevosita daxldor.

Tarixiy taraqqiyotning asosiy sabog’I shundan iboratki,insoniyat qo’lga kiritgan barcha moddiy, ma’naviy boyliklar avloddan-avlodga o’tganda, vorislik ehtiyojiga bo’ysungan holda o’zlashtiriladi va undan faxrli quvvatlangan shaxslar tomonidan rivojlantiriladi.

Boshlang’ich sinflarda ona tilini o’rgatish bo’yicha yaratilgan o’quv metodik qo’llanmalarda ta’kidlanishicha, o’quvchilar nutqini o’stirishda ma’lum shart-sharoitlar bo’lishi kerak.

O’quvchilarda nimanidir aytishga xohish yaratish uchun uning nutqi mazmunli bo’lishigs erishish, nutqni til vositalari bilan qurollantirish zarur.

1-sinf o’quvchilari og’zaki nutqini rivojlantirish uchun ularga daslabki mashg’ulotdayoq adabiy til normalaruini singdirishga ahamiyat berish,buning uchun so’z ,so’z birikmasi va gap ,shuningdek, bog’lanishli nutq ustida ishlash jarayonida nutq o’stirishning asosiy tamoyillariga rioya etishni bilish kerak.

Bolalar lug’atini boyitish , nutqning ravon ,silliq va ta’sirchan bo’lishini ta’minlashda bolalar adabiyoti ustida ishlash,shubhasiz , yaxshi natija beradi. Bolalar bog’chalarining tayyorlov guruhlari va maktab yoshidagi kichik bolalar bilan biror asarni o’qishda o’qituvchi, tarbiyachi asarning mazmuni, undagi asosiy g’oyani bolalar ongiga yetkazish uchun asar tili ustida ishlashi talab etiladi.

Zz Chunki asar tilini o’rganishda undagi ayrim so’z va iboralar bilan ishlash, bir tomondan ,asar mazmunini oson hamda to’liq o’zlashtirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan ,bolalar lug’atini boyitish,til hodisalarini anglash ko’nikmalarini boyitish,til hodisalarini anglash ko’nikmalarini tarbiyalaydi,so’zlarni fonetik jihatdan o’zlashtirishga zamin bo’ladi.

-Maktab ta’limi sohasida ko’rsatmalilik katta ahamiyatga ega. Ta’limning ko’rsatmali bo’lishi prinsipi maktablarning hozirgi taraqqiyot bosqichida muhim.

-Ko’rsatmalilik o’quv materiallarining aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilinishini ta’minlaydi.

-Ko’rsatmalilik ta’limning yetakchi qonun-qoida va talablarini amalga oshirishda juda muhim didaktik masalalarni o’z ichiga oladi.

Nutq-kishi faoliyatining turi,til vositalari(so’z,so’z birikmasi,gap)asosida tafakkurni ishga solishdir.

Nutq o’stirishda ucha yo’nalish aniq ajratiladi:

1)so’z ustida ishlash:

2)so’z birikmasi va gap ustida ishlash:

### 3. bog'lanishli nutq ustida ishlash.

#### Nutq turlari

Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalaniladilar. Ular o'z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqda o'ylab oladilar. Bu ichki nutq hisoblanadi.

Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, "O'ylangan" (fikrlangan) nutqdir, bu nutq fikrlovchi kishining o'ziga qaratiladi.

Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalariga qaratilgan nutqdir.

Ichki nutq va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil; farqi – tashqi nutqda nutq a'zolarining harakati natijasida tovush chiqariadi yoki yozib bayon etiladi, ichki nutq nutq a'zolarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Fikrni ifodalash usulligina ko'ra, nutq og'zaki va yozma bo'ladi.

O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talablar:

1. Mazmunlilik
2. Mantiqiylik
3. Aniqlik
4. Tushunarlilik
5. Til vositalariga mos bo'lishi
6. Ifodalilik
7. To'g'rilik

Nutq o'stirishda eng ahamiyatli darslar: ona tili, o'qish, matematika, tabiatshunoslik, texnologiya va tasviriy san'at hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiya va ularning ta'limga oid bilimlar o'quvchilarning bilimli, hamda yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogic jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Interfaol-o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.

Dars jaraynida bir nechta metodlardan o'rinli foydalanish darsning samaradorligini oshiradi, o'quvchilarni faollashtiradi.

Ta'lim metodlari va shakli sinfdan sinfga o'tgan sari oddiydan murakkabga qarab rivojlantirilib boriladi. Quyi sinflarda ko'proq rasmlar, narsa-buyumlardan, slaydlar, audio va videolavhalardan ta'limiy o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Biroq ulardan o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanish lozim.



Ta'limiy o'yinlarni qo'llashda me'yorni bilish kerak. Ularni haddan ziyod ko'paytirib yuborish o'quvchilarni dars maqsadidan chetlashtirib yuborish o'quvchilarni dars maqsadidan chetlashtirib qo'yish mumkin. Ona tili darsida Grammatik jadvallar, test, rasmlar, muhokamali topshiriqlar, har xil mantiqiy vaziyatlar, boshqotirmalar yozuvchi va shoirlarning hayoti, ijodi, ularning boy madaniy merosini tushuntirish uchun multimedia vositalaridan, vedioroliklardan, electron darsliklardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ona tili darslaridagi ta'limiy maqsadda o'quvchilar bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan til tushunchalari, qoidalari va ta'riflar haqida bilim oladi, tarbiyalovchi maqsadda o'quvchilar bilim egallash jarayonida, ularni o'rab turgan atrof-muhitga, odamlarga, voqealarga va dunyoga nisbatan munosabati shakllanadi, rivojlantiruvchi maqsadda esa olgan bilimlarini amalyotga tadbiiq etish jarayonida yuzaga keladigan qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bu o'rinda o'qituvchi bilan o'quvchining, o'quvchi bilan sinfdoshlarning munosabatida do'stona muhit ahamiyatlidir.

Chunki dars-bola hayotining bir qismidir. U chetlab qo'yilgan bo'lmasligi kerak. Ona tili darslarini o'qituvchilar shunday tashkil qilsinlarki, unda kashfiyotlar ro'y bersin, haqiqatlar tug'ilsin, cho'qqilar zabt etilsin, izlanishlar davom etilsin. Shundagina, qiziquvchan, erkin ijod qilishga qodir, barkamol shaxsni shakllantirish mumkin. Nutqiy xatolarni to'g'rilash va oldini olish til ustida ishlash bilan bog'lab, maqsadga muvofiq holda uyushtiriladi. Nutqiy xatolarni to'g'rilash. O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borish zarur. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rilashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'rilashi hisoblanadi, agar o'quvchi xatosini to'g'rilay olmasa, uni o'qituvchi to'g'rilaydi. Xato turiga qarab to'g'rilanadi: gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi. Insho yoki bayonni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishlash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi – 20-25 minuti ajratiladi. O'qituvchi o'quvchilar insho yoki bayonni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni o'qib beradi, mazmundagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi. Yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash yo'li tushuntiriladi. SHundan so'ng xato ustida birgalikda ishlanadi: o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoning bir turini to'g'rilash yuzasidan topshiriq beradi: «Noo'rin ishlatilgan so'zni boshqasi bilan almashtiring». Xatosi bor matnni o'qib yoki yozib beradi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so'z bilan almashtirib, uni to'g'rilaydilar va tushuntiradilar. Grammatikaga oid mavzuni o'rganishda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi. Masalan,

«Olmosh» mavzusini o'rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so'zlar o'rnida qanday ishlatilishi o'quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki bayon yozishda shunga rioya qiladilar. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyat quyidagi uch asosiy omilga bog'liq: 1) so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, o'quvchilarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit; 2) bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;

### **Xulosa:**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, maktab yoshidagi bolalarda nutq buzilishlari markaziy asab tizimining turli xil shikastlanishlari va artikulyar apparatlarning tuzilishi va funktsiyalarida og'ishlar, ya'ni og'zaki nutq buzilishining turli xil klinik shakllari bilan kuzatilishi mumkin. Nutq faolligi past bo'lsa, bolaning umumiy kognitiv faoliyati zarar ko'rishini hisobga olish kerak. Nutq buzilishlarida nutq to'liq aloqa vositasi, xatti-harakatni tashkil etish va individual rivojlanish vositasi emas. Turli yosh davrlarida nutqi buzilgan ko'plab bolalarda kuzatiladigan intellektual yetishmovchilik va cheklangan bilim zaxirasi ikkinchi darajali xususiyatga ega. Maktab yoshdagi o'quvchilarda tuzatishni talab qiladigan og'zaki va yozma nutq buzilishlarining eng keng tarqalgan turlari fonetik nutq buzilishlari hisoblanadi.

O'quvchilarning nutqidagi kamchiligi o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Buning uchun o'qituvchining nutqi mukammal bo'lishi va u xatolar ustida ishlashni o'quvchilarga o'rgatishi, o'quvchilarning ham og'zaki va yozma nutqini mukammal bo'lishiga undashi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1."Nutq o'stirish usullari" A.G'ulomov
- 2."Til va adabiyot" ta'lim jurnali .2021 N8 sonli
- 3."Ta'lim tog'risida" gi va "Davlat tili haqidagi "qonunlari
- 4."Innovatsion metodlar qo'llangan dars namunalari.
- 5."Xalq ta'limi" jurnali
- 6."Boshlang'ich ta'lim" jurnali.